

## FRANSIYANING GEOSTRATEGIYASIDAGI RISKLAR: ULARNING NAZARIY VA EMPIRIK TAHLILI

**Abduraximova Munisa**

*Talaba:*

**Reipnazarova Sarbinaz**

*O'qituvchi:*

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti xalqaro munosabatlar fakulteti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola Fransiyaning zamonaviy geostrategik risklarini tahlil qiladi. Yevropaning yetakchi davlati sifatida Fransiya siyosiy ichki beqarorlik, Rossiya-Ukraina mojarosi, AQSh siyosatidagi o'zgarishlar, energiya xavfsizligi, migratsiya va Xitoy raqobati kabi tahdidlarga duch kelmoqda. Maqolada Fransiyaning yuqori davlat qarzi, iqtisodiy sekinlashuv, Afrika va Indo-Tinch okeanidagi ta'sirini yo'qotish xavfi hamda Yevropa Ittifoqidagi yetakchilik rolini saqlashdagi qiyinchiliklar ko'rib chiqiladi. Muallif strategik avtonomiyani kuchaytirish va ichki islohotlar zarurligini ta'kidlaydi.*

**Kalit so'zlar:** *Fransiya, geostrategik risklar, Yevropa mudofaasi, strategik avtonomiya, siyosiy beqarorlik.*

### KIRISH

Fransiya davlati yangi asr xalqaro munosabatlar tizimida o'zini global siyosatning ayniqsa Yevropa Ittifoqining markaziy aktorlaridan biri sifatida faoliyatini davom ettirishga intilayotgan mamlakat hisoblanadi. U tarixiy jihatdan imperiyaviy merosga ega bo'lgan, yadro qudratiga ega, diplomatik hamda harbiy vositalarni kombinatsiyasini birlashtira oladigan mamlakat sifatida shakllangan. Shu bilan bir qatorda, Yevropa Ittifoqining integratsion loyihasining asosiy arxitektoralaridan biri sifatida Fransiya mintaqaviy darajada ham strategik liderlikni namoyish etadi.

#### Asosiy qism

Ammo zamonaviy xalqaro tizimning o'zgarib turadigan ya'ni anarxik tabiati - ko'p qutblilikning paydo bo'lishi, xalqaro miqyosda iqtisodiy beqarorlik va xavfsizlik tahdidlarining o'zgarishi — Fransiyaning yangidan yangi paydo bo'lgan geostrategik risklar bilan to'qnash keltirmoqda. Shu kabi risklarni tushunish uchun ularni faqat statistikalar orqali emas, balki xalqaro munosabatlar nazariyalari — Kenneth Waltzga tegishli bo'lgan siyosiy realizm, Robert Keohanening liberal institutsionalizm nazariyasi hamda konstruktivizmni asoslab bergan Alexander Wendt doirasida ko'rib chiqishimiz zarur.

Strukturaviy realizm nuqtai nazaridan olib qaraydigan bo'lsak, Fransiyaning asosiy va dolzarb strategik muammosi — global kuchlar tizimidagi o'z o'rnini saqlab qolishdir. AQSh va Xitoy orasidagi raqobat kuchayib borayotgan bir paytda, Fransiya “strategik avtonomiya” deb nomlangan strategik konsepsiyasini ilgari surmoqda. Ushbu yo'nalish Yevropaning, ayniqsa Fransiyaning, har tomonlama xususan harbiy, siyosiy, texnologik va iqtisodiy jihatdan mustaqil va qaram bo'lmasligini ta'minlaydigan nazariya hisoblanadi. Ammo ushbu maqsad ichki siyosatdagi bazi iqtisodiy va siyosiy cheklovlar

tufayli amalga oshirishning imkoni bo'lmayapti. Misol uchun, Fransiyaning harbiy byudjetdagi qiymati 2024-yilda taxminan 60 milliard yevroga teng bo'lsa, bu uni dunyoning yetakchi davlatlar qatoriga olib chiqadi harbiy xarajatlar bo'yicha. To'g'ri, AQSh yoki Xitoy bilan solishtirganda nisbatan kam sanaladi.<sup>53</sup> Ushbu holat esa realizm nazariyasidagi "kuchlar notekisligi" ya'ni balance of power ni buzilishiga sabab bo'ladi.

Fransiyaning ichki siyosiy tizimida yuzaga kelayotgan transformatsiyalar ham muhim geostrategik risk sabablaridan biri hisoblanadi. 2018–2023-yillar mobaynida sodir bo'lgan keng miqyosdagi ijtimoiy qarama-qarshiliklar, xususan „Gilets Jaunes“ harakati, mamlakatdagi mavjud ijtimoiy tengsizlik hamda iqtisodiy bosim, narxlar ko'tarilganini ko'rsatdi.<sup>54</sup> So'nggi ma'lumotlarga nazar soladigan bo'lsak, Fransiya eng boy 10 foiz aholining daromadi eng kambag'al qatlamdan bir necha barobar yuqori. Ya'ni kambag'allar va boylar orasidagi farq juda yuqoriligini ko'rsatadi. Bu esa Gini koeffitsienti orqali belgilanadigan ijtimoiy tengsizlikning farqi sezilarli ekanini anglatadi.<sup>55</sup> Ushbu holatda liberal institutsionalizm nuqtai nazaridan ko'radigan bo'lsak, effektiv tashkilotlar va institutlar ijtimoiy muvozanatni saqlab qolishi kerak. Ammo tashkilotlar ijtimoiy bosimni pasaytira olmasa siyosiy legitimlik ancha pasayishi mumkin. Fransiya aynan shu holat yuzaga kelmoqda. Siyosiy tizim mavjud bo'lsa-da, uning jamiyat bilan ijtimoiy integratsion holati zaiflashmoqda.

Iqtisodiy indekslar ham Fransiyaning geostrategik samaradorlik holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. 2024-yilda mamlakat Yalpi ichki mahsulot qiymati 3 trillion dollardan oshganligi ma'lum, davlat qarzi esa YAIMning 110–115 foiziga borib qolgan. Bu ko'rsatkich Yevropa Ittifoqi tomonidan belgilangan fiskal miqdorlardan anchagina baland hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, inflyatsiya miqdori 4–6 foiz oralig'ida belgilanmoqda, energiya narxlarining o'ynab turishi esa sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarishiga ta'sir ko'rsatmoqda.<sup>56</sup>

Geoiqtisodiy nazariyaga keladigan bo'lsak, ayniqsa, Robert Gilpinning nazariyasiga binoan iqtisodiy yuksaklik siyosiy ta'sirning belgisidir. Agar iqtisodiy barqarorlik pasaya boshlasa, davlatning tashqi siyosiy imkoniyatlari ham tobora cheklanib boradi. Fransiya aynan shunday tendensiya ko'zga tashlanmoqda. Yuzaga kelgan Iqtisodiy bosim tashqi siyosatdagi manevr imkoniyatlarini tobora kamaytirishga erishmoqda.<sup>57</sup>

Security masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, Fransiya butun Yevropadagi eng yuqori terrorizm xavfiga ega mamlakatlardan biri sanaladi. 2015-yildagi Parij hujumlarida 130dan ortiq qurbon borligini yoki 2016-yildagi Nitsa voqealari <sup>58</sup>hamda keyingi hujumlar natijasida mamlakat xavfsizlik tizimi doimiy tahdid ostida ekanini namoyish etadi. Har yili ichki siyosatda xavfsizlik uchun milliardlab miqdorda pul mablag'lari sarflanadi.

<sup>53</sup> <https://tradingeconomics.com/france/military-expenditure>

<sup>54</sup> <https://www.theguardian.com/world/2018/dec/03/who-are-the-gilets-jaunes-and-what-do-they-want>

<sup>55</sup> <https://www.insee.fr/en/accueil>

<sup>56</sup> [https://www.insee.fr/en/outil-interactif/5543645/tableau/10\\_ECC/11\\_ECO](https://www.insee.fr/en/outil-interactif/5543645/tableau/10_ECC/11_ECO)

<sup>57</sup> [https://portal.kardan.edu.af/\(S\(iopkftqkdttdablbrdfs5cef0\)\)/KardanDigitalLibrary/DownloadFile.ashx?name=Gilpin\\_Global\\_Political\\_Econom\\_z2024\\_10\\_13\\_16\\_19\\_59.pdf](https://portal.kardan.edu.af/(S(iopkftqkdttdablbrdfs5cef0))/KardanDigitalLibrary/DownloadFile.ashx?name=Gilpin_Global_Political_Econom_z2024_10_13_16_19_59.pdf)

<sup>58</sup> [https://www.bbc.com/uzbek/lotin/2015/11/151116\\_latin\\_france\\_paris\\_shootings](https://www.bbc.com/uzbek/lotin/2015/11/151116_latin_france_paris_shootings)

Ushbu holatni realizm nazariyasi yuzasidan tushuntirish maqsadga muvofiq hisoblanadi: har bir davlat o'z xavfsizligini maksimal darajada oshirishga jiddi-jahd bilan harakat qiladi. Lekin konstruktivizmdan olib qaraydigan bo'lsak, ushbu tahdidlar faqat tashqi emas — balki mamlakat ichidagi identitet va integratsiya muammolaridan yuzaga keladi. Misol uchun, ikkinchi va uchinchi bosqichdagu avlod migrantlar orasida ijtimoiy alienatsiya ya'ni ajralish yoki radikallashuv xavfini oshirib yuboradi.

Migratsiya bo'yicha ham Fransiyada geostrategik xavf sifatida bora bora markaziy o'rinlarda turibdi. Oxirgi statistik ma'lumotlarga qaraganda, mamlakat aholisining 10–12 foizi boshqa davlatlarda dunyoga kelgan.<sup>59</sup> Ushbu holat esa Yevropadagi eng yuqori statistikasi tashkil qiladi. Har yili yuz minglab migrantlar Fransiyaga yashash uchun keladi. Fransiyada migratsiya jarayonlari so'nggi yillarda sezilarli darajada faollashib, mamlakatning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy tizimlariga kompleks ta'sir ko'rsatmoqda. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda Fransiyada 7,6 million immigratsiya kelib chiqishiga ega aholi yashagan bo'lib, bu umumiy aholining 11,2 foizini tashkil etadi. Bundan tashqari, taxminan 6 million kishi Fransiya fuqaroligiga ega bo'lmagan xorijiy rezidentlar hisoblanadi, bu esa aholining qariyb 8,8 foiziga teng. Ushbu ko'rsatkichlar Fransiyaning migratsiya jihatdan Yevropadagi asosiy markazlardan biri ekanini tasdiqlaydi.<sup>60</sup>

Fransiya Ichki ishlar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda mamlakat tomonidan 2,9 milliondan ortiq viza berilgan bo'lib, bu o'tgan yilga nisbatan sezilarli o'sishni ko'rsatadi.<sup>61</sup> Ushbu statistikalar migratsiya yo'nalishining ko'p qirrali ekanini anglatadi u faqat doimiy ko'chib keluvchilar bilan cheklanmay, balki o'z navbatida talabalar, vaqtinchalik ishchilar va yashashni xohlaydiganlarni ham o'z ichiga oladi. So'nggi yillarda ayniqsa ta'lim va gumanitar migratsiya kanallari kengaygani kuzatilmoqda.

Migratsiyaning eng muhim va asosiy xususiyatlaridan biri — uning tarkib jihatdan diversifikatsiya qilinganidir. Tarixdan olib qaraydigan bo'lsak, ushbu davlat miqyosida migratsiya asosan oilaviy hayot kechirish asosida amalga oshirilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib butkul o'zgarimoqda, ya'ni iqtisodiyot, ta'lim hamda gumanitar maqsadlar ham katta sabablardan biri bo'lmoqda. Ushbu holat esa migratsiya siyosatini yanada yomonlashtiradi, chunki har bir turdagi migratsiya alohida e'tibor hamda boshqaruv mexanizmini talab qiladi. Nazariy jihatdan bu jarayonni konstruktivizm orqali tushuntirish mumkin. Alexander Wendt yondashuviga ko'ra, davlat ichidagi ijtimoiy identitetlar va madaniy farqlar siyosiy jarayonlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Fransiyada esa migratsiya oqimlari bilan bog'liq eng katta muammo — bu integratsiya jarayonining murakkabligidir. Immigrantlarning katta qismi urban hududlarda to'plangan bo'lib, bu gettolashuv va ijtimoiy ajralish xavfini oshiradi.

Bundan tashqari, migratsiya iqtisodiy tizimga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Bir tomondan, u mehnat bozoridagi bo'shliqlarni to'ldiradi, ayniqsa past malakali yoki kam talab qilinadigan ishlar sektorida. Ikkinchi tomondan esa, ijtimoiy ta'minot tizimiga

<sup>59</sup> <https://www.insee.fr/langue/en>

<sup>60</sup> <https://www.insee.fr/fr/accueil>

<sup>61</sup> <https://www.vie-publique.fr/>

bosimni oshiradi. Fransiya ijtimoiy davlat modeli asosida ishlagani sababli, davlat byudjeti migratsiya bilan bog'liq xarajatlarni ko'tarishga majbur bo'ladi. Migratsiya masalasi siyosiy jihatdan ham sezilarli ta'sirga ega. So'nggi yillarda migratsiya mavzusi Fransiyada populistik kuchlarning asosiy siyosiy instrumentiga aylangan. Bu esa jamiyat ichida polarizatsiyani kuchaytiradi va siyosiy qaror qabul qilish jarayonini murakkablashtiradi. Natijada migratsiya faqat demografik yoki iqtisodiy muammo emas, balki geostrategik xavf omiliga aylanadi.

Shuningdek, migratsiya xavfsizlik masalalari bilan ham uzviy bog'liq. Rasmiy ma'lumotlar migratsiya va jinoyatchilik o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikni ko'rsatmasa-da, siyosiy diskursda bu ikki tushuncha ko'pincha bir-biriga ulanadi. Bu esa xavfsizlik siyosatining qattiqlashishiga olib keladi va fuqarolik erkinliklari bilan xavfsizlik o'rtasida muvozanat masalasini yuzaga keltiradi.

Umuman olganda, Fransiyada migratsiya muammosi ko'p qatlamli va kompleks xarakterga ega bo'lib, u demografik, iqtisodiy, siyosiy va madaniy omillar kesishgan nuqtada shakllanadi. Statistika ma'lumotlar migratsiyaning hajmi va dinamikasini ko'rsatsa, nazariy yondashuvlar uning chuqur sabablarini tushunishga yordam beradi. Shu sababli, migratsiya masalasini samarali boshqarish uchun faqat restriktiv siyosat yetarli emas, balki integratsiya, ijtimoiy moslashuv va iqtisodiy inklyuziyani o'z ichiga olgan kompleks strategiya zarur.

Yana bir nazariya - konstruktivizm ko'radigan bo'lsak: jamiyatdagi identitetlar va qadriyatlar orasidagi farq ko'plab siyosiy konfliktlarni hosil qilmoqda. Shu bilan bir qatorda, migratsiya masalasi iqtisodiy tizim uchun ham muhim va dolzarb hisoblanadi ya'ni — u samarali va ko'p ishchi kuchini ta'minlaydi, lekin ijtimoiy xarajatlarni oshiradi. Bu esa davlat byudjetiga qo'shimcha bosim ham keltiradi. Chunki hammani ham ish bilan ta'minlashni o'zi bo'lmaydi.

Texnologik bosim hamda kiberxavflar esa zamonaviy geosiyosatning yangi turi sanaladi. Fransiyada yiliga ko'plab kiberhujumlar yuzaga kelmoqda. Bunda ayniqsa, davlat infratuzilmasi hamda bank tizimi asosiy vosita sanaladi. Fransiya raqamli texnologiya sohasida yetakchi o'rinlarda bo'lsa-da, u hali ham AQSh va Xitoy texnologik vositalariga qaram hisoblanadi. Ushbu holatni „texnologiyaga asoslangan suveren chegara“ nazariyasi orqali izohlash mumkin. Agar biror bir davlat o'zining texnologik infratuzilmasini mustaqil idora eta olmasa, u siyosiy va iqtisodiy tomondan ham kuchsizlanadi. Bu holat esa realistik nazariyaning yangi ko'rinishi — texnorealizmni paydo qiladi.

Fransiyadagi barcha shu kabi risklar o'zaro bir biriga bog'langan hisoblanadi. Yanda ko'proq iqtisodiy tizimdagi bosim tobora ijtimoiy norozilikni kuchaytiradi, va siyosiy tizimni ichidan zaiflashtirib boradi. Migratsiya muammolari yuqori darajada ekanligi xavfsizlikka putur yetkazib turli xil risklarning xavfinu oshiradi, kiberxavflar esa yana trigger sifatida bu holatlarni tezlashtiradi. Ushbu murakkab holatni esa xavflar kombinatsiyasi deb nomlash ham mumkin. Xalqaro munosabatlar nazariyasi yuzasidan tahlil qilsak, Fransiyaning shu kabi dolzarb muammolari uning global roliga ta'sir qilmay qolmaydi, albatta. Ichki barqarorlik pasayishi bilan, u Yevropa Ittifoqidagi lider sifatidagi

rolini shartta Germaniya yoki boshqa da'vo qilayotgan davlatga bo'shatib berishi mumkin. Shu bilan bir qatorda, global miqyosda ham u Amerika Qo'shma Shtatlari bilan ham bir vaqtning o'zida ittifoq va strategik mustaqillik o'rtasida balance izlashigaga to'g'ri keladi.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, Fransiyaning geostrategiyasidagi risklar ko'p qatlamli, o'zaro bir biriga bog'langan va dinamik xarakterlangan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra hamda nazariy va amaliy tahlil natijalari shuni namoyon etadiki, eng dolzarb va risklar — iqtisodiy tizimdagi bosim, ijtimoiy barqarorlik yo'qligi, xavfsizlik tahdidlari hamda texnologiya borasidagi qisman qaramlik hisoblanadi.

Eng samarali yondashuv esa oldini oladigan barqaror siyosiy boshqaruv, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak risklarni oldindan aniqlash, darajasini baholash hamda ularni tizimli ravishda kamaytirishga yonaltirilgan choralar ko'rmoqlikdir.

Ayniqsa, oxirgi bir necha yil davomida ushbu mamlakat uchun ko'plab tanqidlarga sabab bo'lgan yo'nalishlar sifatida iqtisodiy barqarorlikni tiklash, o'zaro integratsiyani kuchaytirish hamda texnologiya sohasidagi mustaqillikni jorit etish alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Kenneth Waltz Waltz, K. N. (1979). Theory of international politics. McGraw-Hill.
2. Robert O. Keohane Keohane, R. O. (1984). After hegemony: Cooperation and discord in the world political economy. Princeton University Press.
3. Alexander Wendt Wendt, A. (1999). Social theory of international politics. Cambridge University Press.
4. Robert Gilpin Gilpin, R. (2001). Global political economy: Understanding the international economic order. Princeton University Press.
5. John J. Mearsheimer Mearsheimer, J. J. (2001). The tragedy of great power politics. W. W. Norton & Company.
6. Henry Kissinger Kissinger, H. (2014). World order. Penguin Press. Elektron manbalar
7. Trading Economics. (2024). France military expenditure. <https://tradingeconomics.com/france/military-expenditure>
8. The Guardian. (2018). Who are the Gilets Jaunes and what do they want? <https://www.theguardian.com/world/2018/dec/03/who-are-the-gilets-jaunes-and-what-do-they-want>
9. INSEE. (2024). Economic indicators and inequality data. <https://www.insee.fr>
10. BBC Uzbek. (2015). France Paris attacks. <https://www.bbc.com/uzbek>
11. Vie Publique. (2024). French visa statistics. <https://www.vie-publique.fr>